

Date: 13th March-2025

**FARG‘ONA VILOYATI MODDIY TA’MINOTINING TARIXIY JIHATLARI
(1985–2024-YILLARDA)**

Sh.Y.Oxunjonova

FarDU O‘zbekiston tarixi kafedrasи v.b.dotsenti, t.f.f.d

E-mail: oxunjonova1191@mail.ru

N.U. Sadirova

Farg’ona Davlat Universiteti, Tarix mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqola Farg’ona viloyatining moddiy ta’minotini 1985–2024-yillar davrida o‘rganadi. Unda viloyatning iqtisodiy o‘sishidagi muhim omillar, moddiy ta’minotning shakllanishi va o‘zgarishlarining tarixi, resurslarni taqsimlash, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi, hamda davlat siyosati ta’siri tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, bu davrda viloyatda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va ularning ta’minot tizimiga bo‘lgan ta’sirini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Farg’ona viloyati, moddiy ta’minot, tarixiy jihatlar, iqtisodiy o‘sish, resurslar, taqsimlash, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, islohotlar, davlat siyosati.

Aholi turmush darajasini oshirish va uning farovonligini yanada mustahkamlash davlat siyosatining bosh masalasi hisoblanadi. Chunki aholining turmush darajasi qanchalik yuqori bo’lsa davlat ham shunchalik darajada rivojlangan hisoblanadi. O‘zbekistonda aholi turmush darajasi va sifatini yanada oshirish, ijtimoiy muhofaza qilish tizimini kuchaytirish borasida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Keyingi yillarda mamlakat Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, odamlar moddiy turmush tarzini yaxshilash, shuningdek, 2018 yilgi Davlat dasturida aholini munosib hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan daromadlarni aniqlash bo‘yicha “iste’mol savatchasi”ga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solish kabi ustuvor vazifalarning belgilanishi ham bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko‘tarilishini talab etmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, aholi moddiy ta’minotining holati, muammolari va rivojlanish darajasini O‘zbekiston va uning hududlari miqqosida o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, bu borada olib borilayotgan ishlarni aholi zichligi yuqori hisoblangan hamda aholi moddiy ta’minoti masalasida qo‘srimcha omillarni talab etuvchi Farg’ona viloyati misolida tadqiq etish o‘ta dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mustaqilligimizni dastlabki yillarida saqlanib qolgan muammolar sovet davri iqtisodiy inqirozi omillari sifatida ta’sir etib turdi. 1985-1990-yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarda sodir bo‘lgan muammolar o‘z navbatida O‘zbekiston uchun salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Bu, ayniqsa, aholi zich joylashgan Farg’ona viloyatida iqtisodiy, ijtimoiy ziddiyatlar keskin tus olishiga olib keldi. Respublikaning katta boyliklar, ishlab chiqarish imkoniyatlari, qulay tabiiy sharoitlarga ega bo‘lishiga qaramasdan, asosiy iqtisodiy-ijtimoiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ittifoqdosh respublikalar orasida eng oxirgi o‘rinlardan biriga tushib qoldi. Albatta, bunday tanglik holatiga tushib qolishi aynan XX

Date: 13thMarch-2025

asrning 80-yillari o‘rtalariga kelibgina o‘z-o‘zidan vujudga kelgan emas, balki uning tub ildizlari mavjud bo‘lib, ular yillar davomida respublika imkoniyat va manfaatlarini inobatga olmasdan olib borilgan siyosat natijasida yuzaga kelgan edi.

O‘zbekiston, asosan, paxtachilikka ixtisoslashtirilishi oqibatida paxta ekin maydonlari yildan-yilga g‘alla va boshqa ekin maydonlarini qisqartirish hisobiga ko‘paytirib borildi¹. Paxtachilikka ixtisoslashuv bo‘yicha Farg‘ona viloyatida boshqa vodiy viloyatlari kabi alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Farg‘ona vodiysi iqtisodiy va demografik ko‘rsatkichlari bo‘yicha O‘zbekistonning boshqa viloyatlaridan ajralib turgan. Mintaqada asosan paxtachilik, ipakchilik, paxta yog‘i ishlab chiqarish ancha rivojlangan. Vodiy shaharlarida qurilgan yirik korxonalarda respublikada ishlab chiqarilgan konserva mahsulotlarining to‘rtadan bir qismidan ortig‘ini, qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 1/4 qismini, paxta xom ashvosining 30 foizdan ortig‘ini, mevaning 1/3 qismini, paxta tolasining 27 foizini, ipak matolari (shoyi) ning 90 foizdan ortig‘ini, poyabzal ishlab chiqarishning 31 foizini yetkazib bergen². Paxta ekin maydonlari kengaytirilishi natijasida Farg‘ona viloyatida ham boshqa turdagи qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi qisqarishiga olib keldi. Jumladan, g‘allaning umumiyl hosilida vodiyning ulushi – 15 foiz, poliz ekinlari hosilida – 11 foiz, uzum yetishtirishda – 5 foizni tashkil etgan, xolos. O‘zbekistonni xom ashyo yetishtiruvchi hudud sifatida qaralishi, respublika aholisi moddiy ta’minati ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilish darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Mamlakatdagi ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruв tizimi iqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishishda, asosan, ekstensiv yo‘ldan bordi. Buning oqibatida ortiqcha yerlarning o‘zlashtirilishi, mavjud resurslardan samarasiz foydalanish va isrofgarchilikka olib keldi. Xo‘jalik yuritishda ekstensiv usul va qo‘l mehnatining ustunligi hosildorlik darajasi past bo‘lishiga hamda sarf-xarajatlar miqdori keskin ortib borishiga sabab bo‘ldi.

Yillar mobaynida iste’mol mahsulotlarini mahalliy ishlab chiqarish darajasining past holda tashkil etilganligi tufayli aholi ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan ko‘plab turdagи tovar-mahsulotlar respublika tashqarisidan keltirish hisobiga ta’minlab kelindi. Jumladan, O‘zbekistonga har yili 6 mln. tonna atrofida don, 350 ming tonna qand, 146 ming tonna go‘sht va go‘sht mahsulotlari, 800 ming tonna atrofida sut keltirilgan³. 1988 yilda birgina Farg‘ona viloyatining o‘ziga respublika tashqarisidan 8 ming 502 nomdagи 45 mln. so‘mlik tovarlar keltirilgan⁴. Bu kabi holatlar Namangan, Andijon viloyatlariuchun ham xos bo‘lib, ahamiyatli tomoni ular orasida har kuni ehtiyoj seziladigan oddiy tovarlar ham ko‘p bo‘lgan. Garchi, raqamlarda bir necha mln. tonnalar aks etsada, ular aholi ehtiyojlarini ta’minalash uchun yetarli miqdorda bo‘lmagan.

¹ 1886-1914 йилларда пахта экин майдонлари 600 минг гектарни ташкил этган бўлса, 1970–1988 йиллар орасида пахта майдонлари 1 млн. 709,2 минг гектардан 2 млн. 16,7 минг гектарга етказилган. Манба: Тўхлиев Н. Иқтисодиётни интенсив ривожлантириш йўлига ўтказишни жадаллаштирайлик // Ўзбекистон коммунисти. 1990. – №6. – Б. 13.

² Алиакберова Н.М., Гольдфарб Б.Я., Эргашев А. Размещение населения Ферганской долины (демографический аспект). – Ташкент: Фан, 1990. – С. 3.

³ Юсупов Э., Туленов Ж., Фофуров З. Миллий масала бўйича фалсафий сухбатлар. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 31.

⁴ Коммуна. 1989 йил 24 марта.

Date: 13thMarch-2025



Qishloq xo‘jaligi, asosan, paxtachilikka ixtisoslashgan Farg‘ona vodiysi qishloq aholisining tomorqa yerlari keskin kamayishiga hamda chorvachilik hamda boshqa turdag'i qishloq xo‘jalik mahsulotlarini mahalliy ishlab chiqarish hamda iste'mol darajasiga salbiy ta'sir ko‘rsatdi. Vaholanki, aholining katta qismi, xususan, 1989 yilda respublika bo‘yicha aholining 59,2 %i, Andijonda – 68 %, Farg‘onada – 67,3 %, Namanganda – 63 %⁵ qishloqlarda yashar hamda ularning moddiy farovonligi bevosita qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq edi. Aholi moddiy ta'minotida Farg‘ona vodiysidagi demografik holat e'tiborga olinmaganligi hudud aholisining turmush darjasiga salbiy ta'sir ko‘rsatdi. Masalan, 1989 yil boshlarida Farg‘ona vodiysi respublika umumiy maydonining 4,2 %ini tashkil etgan holda, u yerda aholisining 26,9 %i istiqomat qilgan⁶.

Farg‘ona vodiysida qishloq xo‘jalik maydonlari aholi soniga nisbatan kam bo‘lib, bu esa qishloq joylarida yashovchi har bir kishiga juda oz miqdorda yer maydoni to‘g‘ri kelganligini anglatadi. Mintaqqa qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan har bir kishiga 1 gektarga ham yetmagan yer maydoni to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, boshqa viloyatlarda 1.5–2.0, ba’zi viloyatlarda undan ham ko‘proq yer maydoni⁷ to‘g‘ri kelgan. Tomorqa va ozuqa ekin maydonlarining yetarli emasligi aholining chorva mollarini boqish, ko‘paytirish hamda mahalliy chorva mahsulotlarini ishlab chiqarish imkoniyatlari cheklanishiga olib keldi. Masalan, respublika bo‘yicha 41%, Andijon viloyatida – 68 %, Namangan viloyatida – 64 %, Farg‘ona viloyatida – 51 %⁸ oilalarda sigir bo‘lmagan.

Aholi moddiy ta'minotidagi bunday holatni go‘yoki markaz tomonidan tushunganday bo‘lsalarda, ijobiylar o‘zgarishlar yasalmadi. Xususan, 1988 yilda ittifoq rahbari M.S. Gorbachevning O‘zbekistonga tashrifida: “O‘zbekistonda yerlarning 85 fozigacha paxta egallab kelgan. O‘zbekiston oziq-ovqat mahsulotlarini, hatto konditer mahsulotlarini ham boshqa joylardan keltiryapti. Oziq-ovqat va yengil sanoatni keng ko‘lamda rivojlantirish va ko‘p ish qilishingiz mumkin. Bu, nazаримда, respublikangizning “oltin koni”dir”, deya ta’kidlagan bo‘lsada, amalda bu borada sezilarli amaliy ishlar olib borilmagan.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, so‘nggi yillarda aholining o’sib borayotgan to’lov qobiliyat bilan mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan iste’mol tovarlari hajmi o’rtasida ichki bozorda mutanosiblikni ta’minalash, bunday mahsulotlar turini kengaytirish, bozorlarimizni ular bilan ishonchli tarzda to’ldirib borish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, aholining turmush farovonligi ko‘p jihatdan uning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’milanganlik darjasiga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur masalani hal etishda ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish, dehqon va fermer xo‘jaliklari faoliyatlaridan yanada samarali foydalanish zarur bo‘ladi. ishlarini takomillashtirish lozim.

⁵ Узбекистан в цифрах в 1990 году. Краткий статистический сборник. – Ташкент: Ўзбекистон, 1991. – С. 22 – 23.

⁶ Народное хозяйство Узбекской ССР в 1988 г. Статистический ежегодник. – Ташкент: Узбекистан, 1989. – С. 17–19.

⁷ Бобожонова Д. Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва уларнинг хусусияти. – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 58.

⁸ Абдуллаев А. Ўзбекистонда пахта яккаҳоқимлиги ва унинг оқибатлари (1917–1991 йиллар): Тар. фан. док. ... дис. – Тошкент, 2010. – Б. 207–208; Коммуна. 1989 йил 16 май; Коммунист. 1989 йил 28 июль.

Date: 13thMarch-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алиакберова Н.М., Гольдфарб Б.Я., Эргашев А. Размещение населения Ферганской долины (демографический аспект). – Ташкент: Фан, 1990. – С. 3.
2. Бобожонова Д. Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва уларнинг хусусияти. – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 58.
3. Коммуна. 1989 йил 24 март.
4. Абдуллаев А. Ўзбекистонда пахта яккаҳокимлиги ва унинг оқибатлари (1917–1991 йиллар): Тар. фан. док. ... дис. – Тошкент, 2010. – Б. 207–208; Коммуна. 1989 йил 16 май; Коммунист. 1989 йил 28 июль.
5. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1988 г. Статистический ежегодник. – Ташкент: Узбекистан, 1989. – С. 17–19.
6. Тўхлиев Н. Иқтисодиётни интенсив ривожлантириш йўлига ўтказишни жадаллаштирайлик // Ўзбекистон коммунисти. 1990. – №6. – Б. 13.
7. Узбекистан в цифрах в 1990 году. Краткий статистический сборник. – Ташкент: Ўзбекистон, 1991. – С. 22 –23.
8. Юсупов Э., Туленов Ж., Фофуров З. Миллий масала бўйича фалсафий сұхбатлар. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 31.